



**OZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIKNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT
STOMATOLOGIYA INSTITUTI**



**“YOSH OLIMLAR KUNLARI”
Respublika ilmiy-amaliy anjumani
xalqaro ishtirok bilan
TEZISLAR TO'PLAMI**

**COLLECTION OF ABSTRACTS
“YOUNG SCIENTISTS DAYS”
Republic scientific and practical conference
with international participation**

**СБОРНИК ТЕЗИСОВ
Республиканской научно-практической конференции
с международным участием
“ДНИ МОЛОДЫХ УЧЁНЫХ”**

Toshkent 25 aprel 2023 y.

ZAMONAVIY STOMATOLOGIYADAGI SIRKON DIOKSID KONSTRUKSIYALARNI AHAMIYATI

*Olimov F.O., 311 grupp Stomatologiya fakulteti TDSI Quvatov S.Y., 311
grupp Stomatologiya fakulteti TDSI
Ass. Nurullayeva M.O.*

Ilmiy maslahatchi: TDSI Fakultet Ortopedik Stomatologiya kafedrası

Kalitso`zlar: CAD/CAM, Sirkon dioksid, protezlash, tish qatorining qisman nuqsoni, emal, keramika, metalokeramika.

Annotatsiya: Sirkon dioksidli qoplamalarni qo'llashimizda ularni ahamiyati. Sirkon dioksidli qoplamalarni qo'llashimizdagi ko'rsatmalar hamda ularni bemor og'iz bo'shlig'iga joylashtirish.

Sirkon dioksid stomatologiyaga kirib kelib inqilob qildi. Ushbu modda tarkibi ta'biy sirkondan, alyuminiy hamda ittiriylarning qo'shilishidan olingan. Oxirgi ikki element materialga mustahkamlik, egilishga bardoshlilik beradi. Bu materialning eng yaxshi xususiyatlari gipoallergenligi hamda inson tanasi bilan muvofiqligi bilan bog'liq.

Endi birinchi bo'lib bu protezning ijobiy hamda salbiy xususiyatlarni ko'rib chiqsak!

Sirkon dioksidli ko'priksimon protezlarning ijobiy xususiyatlari:

16. Tabiiy material bo'lganligi sababli allergiya chaqirmaydi.
17. Moslashish davri yo'q. Ovqat iste'mol qilishga halaqit qilmaydi.
18. Kuch va chidamlilik juda yaxshi. To'g'ri parvarish qilinsa 15-20 yil davomida xizmat qiladi. Tashqi ko'rinish o'zgarmaydi.

Bundan tashqari, sirkon dioksiddan tayyorlangan protezlarni o'rnatishda asoratlar deyarli uchramaydi. Agar ko'priksimon protezga tayanch qilib tanlab olgan tishlarimiz sog'lom bo'lsa, kam charxlanish bois depulpatsiya (pulpasizlantirish) qilish talab qilinmaydi. Bu bizga sog'lom tish to'qimasini uzoqroq saqlashga imkon beradi. Shu bilan bir qatorda dizayn yengil, qalinligi 1 mm dan oshmaydi.

Sirkon dioksidli ko'priksimon protezlarning salbiy xususiyatlari:

- Yuza qismining ko'chishi bo'lsa, ular ikki qavatli modellarda paydo bo'ladi va bu yuqori keramik qatlam parchalanadi. Bu bemorning qo'yilgan protezga beparvo munosabati tufayli kelib chiqadi, hatto 1400 MPa ga bardosh bera olishiga qaramasdan, uning keramikaning yuqori qatlamiga yopishish kuchi atigi 80-100 MPa bo'lganligi sababli sodir bo'ladi.

- Sirkon dioksidli ko'priksimon protezlarning ko'pchiligi ularning yuqori narxini o'z ichiga oladi. Bu qimmatbaho materiallar va professional uskunalardan foydalanish bilan bog'liq.

Ko'rsatmalar:

- Ular deyarli barcha bemorlarga, ham old tomondan, ham chaynash tishlariga joylashtirilishi mumkin.

- Olinmaydigan protezlarning plastmassali qoplamalariga allergiya holatlari.

Qarshi ko`rsatmalar:

1) Absolyut qarshi ko`rsatmalar:

- Parodontal patologiyalar (parodontit va parodontoz)
- Bruksizm
- Patologik prikus turlari
- Tishlarni patologik yemirilish turlari

2) Nisbiy qarshi ko`rsatmalar:

- Chaynov tishlarida bittadan ortiq bo`lgan tish nuqsoni

Endi klinik bosqichga o`tamiz!

Birinchi klinik bosqich tayanch tishni qoplamaga tayyorlash ya`ni charxlash:

1. Ariqchalar shakllantirish
2. Vestibulyar va oral tomondan charxlash
3. Chaynash tomondan to`qimalarni olib tashlash
4. Kontaktli yuzalarni silliqlash
5. Milk retraksiyasi
6. Zinapoya shakllantirish
7. Yakuniy ishlov berish

Sirkon dioksid ananiqligi bilan ba`zi bir protezlardan ustun turishi ko`pchilikka ma`lum. Bu aniq qilib chiqarish esa uni tayyorlanish bosqichlari bevosita CAD/CAM tizimi bilan bog`liq. CAD/CAM qisqartmasi “Computer – Aided Design and Computer – Aided Manufactur” ma`nosi kompyuter yordamida loyihalash va kompyuter yordamida ishlab chiqarish. CAD/CAM tizimi sizga ishni avtomatlashtirilgan holda tashkil etish, hamda juda aniq va juda kuchli protez tayyorlashga yordam beradi. Bu ish ma`lum, qadamlarni o`z ichiga oladi.

1- **Qadam:** Og`iz bo`shlig`idan qolip olish.

2- **Qadam:** Skanerlash.

3- **Qadam:** Uch o`lchamli modellashtirish.

4- **Qadam:** CAM:

5- **Qadam:** Frezalash mashinasida protez avtomatik ishlab chiqarish:

6- **Qadam:** Olingan mahsulotlar issiqlik bilan ishlov berish:

Keyingi bosqich qoplamani og`izda charxlangan tabiiy tishlarga o`lchab ko`rish:

Sirkon dioksidli qoplama bilan ishchi modeli og`iz bo`shlig`ida tekshirish uchun klinikaga topshiriladi.

Keyingi bosqich biz qoplamani bemorning tabiiy tishlarini qotirishimiz:

MDP – based kompozit-efir asosli kompozit bog`lovchi material bo`lib, yopishish darajasi yuqori. Bu material qo`shimcha ravishda efir hisobiga kimyoviy kuchli kovalent bog` hosil qiladi. Shuni hisobga olgan holda biz konstruksiyani fiksatsiya qilsak, konstruksiyamiz biz o`ylagandan ham uzoqroq muddatga xizmat qiladi. (Panavia Self Adhesive Cement Plus (Kuraray Noritake))

Biz bemorga konstruksiyani qotirganimizdan so`ng kerakli maslahatlar beramiz.

Endi biz bu konstruksiyani bemorga topshirganimizdan so`ng qanday asorat va kamchiliklar bo`lishini ko`rib chiqamiz.

• Bizga bemor 40 yoshda murojaat qildi va biz bemorga 20 yil kafolat bilan konstruksiya quyib berdik, lekin bemorda 50 yoshdan so`ng tishlarni tabiiy yemirilishi boshlandi. Yoki paradontoz hisobiga konstruksiya qo`yilmagan tishlar tushib ketib, biz quygan konstruksiyaga haddan ziyod kuch tushishi natijasida, tayanch tishlarda travmatik peridontit yuzaga keladi. Hamda fiziologik milk atrofiyasi.

• Biz bu protezlarni o`rganishimiz davomida, bu ko`priksimon protezlar hozirgi paytda eng mustahkam, uzoq muddat xizmat qilishi bilan ajralib turishi, hamda bularni qaysi vaziyatda ishlatilishi, qaysi vaziyatda ishlatib bo`lmasligi, shu bilan birga ijobiy salbiy tomonlarini ko`rib chiqdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.I.Irsaliyev, R.N.Nigmatov, N.L.Xabilov, A.N.Akbarov. «Ortopedik stomatologiya fakultet kursi». Tibbiyot oliy o`quv yurtlarining stomatologiya fakultet talabalari uchun darslik. T.: “Global Books”, 2018

2. Ортопедическая стоматология: Руководство для врачей, студ. вузов и мед. училищ/ Н.Г.Аболмасов, Н.Н.Аболмасов, В.А.Бычков, А.Аль-Хаким. М.: МЕДпресс-информ, 2002. – 576 с

3. Makhija SK, Lawson NC, Gilbert GH, Litaker MS, McClelland JA, Louis DR, et al. dentist material selection for single-unit crowns: Findings from the National Dental Practice-Based Research Network. J Dent, 2016. 55:40-7. <http://doi.org/10.1016/j.dent.2016.09.010.PMID:27693778>

4. Ozcan M and Bernasconi M. Adhesion to Zirconia used for dental restorations: a systematic review and meta-analysis. J Adhes Dent, 2015. 17(1):7-26. <http://doi.org/10.3290/j.jad.a32525.PMID:25646166>

ПРОЯВЛЕНИЕ ВОСПАЛИТЕЛЬНОЙ РЕАКЦИИ НА СЛИЗИСТОЙ ОБОЛОЧКЕ ПОЛОСТИ РТА ДО И ПОСЛЕ ПРОТЕЗИРОВАНИЯ У БОЛЬНЫХ БРОНХИАЛЬНОЙ АСТМОЙ

*Ибрагимов А.Х. клинический ординатор кафедры факультетской
ортопедической стоматологии ТГСИ*

*Научный руководитель: Акбаров А.Н., д.м.н., профессор кафедры
факультетской ортопедической стоматологии ТГСИ*

Ташкентский государственный стоматологический институт, Узбекистан

Актуальность: Бронхиальная астма является одной из актуальных проблем современной медицины, которая представляет собой гетерогенное заболевание и характеризуется наличием хронического воспаления дыхательных путей. Существенное влияние оказывает снижение у больных бронхиальной астмой барьерных свойств слизистой ротовой полости, что создает неблагоприятные условия для твердых тканей зуба и пародонта, усиливая воздействие микрофлоры и других патогенных факторов. Имеются сведения о наличии у больных бронхиальной астмой нарушений в системе иммунитета, предрасполагающих к возникновению заболеваний пародонта

